

JOURNAL OF ENVIRONMENTAL AND LAND LAW (JELL)

LAW • ENVIRONMENT • SUSTAINABILITY • JUSTICE

 OPEN
ACCESS

INTERNATIONAL
PEER-REVIEWED
JOURNAL

OUR FIELDS

- Land law and agrarian relations
- Environmental law and climate change
- Water law and transboundary cooperation
- Urban planning and zoning law
- Natural resources and energy law

OUR INDEXING

 Google Scholar

 Zenodo

 DOI

 OpenAIRE

 Open Access

 DOAJ



 <https://unireview.uz/index.php/jell>



Published by
UniLex Global, Uzbekistan



VOLUME 1

ISSUE 1



JUNE 2026



"UNILEX GLOBAL" LLC

Ekologiya va yer huquqi jurnali / Journal of Environmental and Land Law

**June, 2026
VOLUME 1, ISSUE 1**



EDITORIAL TEAM

Editor-in-Chief, Tukhtashev Hikmatilla Ismatillaevich - Head of the Department of Legal Sciences, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), TIIAME National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

1. **Editorial Board Members Kholmuminov Juma Toshtemirovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
2. **Editorial Board Members Fayziev Shukhrat Khasanovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
3. **Editorial Board Members Uzakova Gozal Sharipovna** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
4. **Editorial Board Members Narzullaev Olim Kholmamatovich**, Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
5. **Editorial board members Kenjaev Rustam Khaydarovich**, Candidate of Legal Sciences (PhD), Professor, Head of the Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
6. **Editorial Board Members Utegenov Ongarbay Dariyabayeovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Finance, Tashkent University of Chemical Technology – International University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
7. **Editorial Board Members Hayitov Hasan Shermatovich** - Candidate of Legal Sciences (PhD), Investigator, Shykhontohur District Division, Department for Combating Economic Crimes under the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
8. **Editorial Board Members Khodjaeva Aziza Bakhtiyarovna** - Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) "Academy of Labor and Social Relations" under the Federation of Trade Unions of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
9. **Editorial Board Members Nishonov Abdulloh Ubaydulloh ugli** - Senior Lecturer Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
10. **Editorial Board Members Makhkamov Durbek Nematovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Dean, Faculty of Public Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
11. **Editorial Board Members Usmanov Muhammad Bahritdinovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
12. **Editorial Board Members Juraev Yuldash Achilovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Associate Professor Senior Researcher, Parliamentary Research Institute under the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
13. **Editorial Board Members Nurmatov Mirgolib Mirzayeich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Special Legal Sciences and Military Diplomacy, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
14. **Editorial Board Members Bobokulov Shoxnazar Ochilovich** - Candidate of Legal Sciences, Associate Professor, Acting Professor, Department of Legal Sciences, Tashkent International University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
15. **Editorial Board Members Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna** - Candidate of Legal Sciences, Associate Professor Associate Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
16. **Editorial Board Members Allayorov Tulqin Ruziqulovich** - Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor Nizami Named Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.



Original research article

ATROF-MUHIT VA O'SIMLIK DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH BORASIDAGI HUKUMATNING QABUL QILGAN QAROR, QONUN VA FARMONLARNING TAHLILI

Rustamov Nazar Sarvar o'g'li

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari
ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti (DSc)

MAQOLA MA'LUMOTI

Kalit so'zlar:

atrof-muhit,
tabiat,
bioxilma-xillik,
muhofaza qilish,
genetik yaxlitlik,
flora,
strategiya,
genofond,
genbank,
genetik fond.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hukumatining atrof-muhit va o'simlik dunyosini muhofaza qilish borasidagi hukumatning qabul qilgan qaror, qonun va farmonlarning tahlili keltirilib o'tilgan. Tahlillarda mustaqillikka erishgan vaqtdan to hozirgi kunga qadar bosqichma-bosqich qabul qilingan va kuchga kirgan qonun hujjatlarining dolzarbligi izohlangan. Qayd etib o'tilgan barcha qonun hujjatlarida tabiatimizning biologik xilma-xilligini asrash qolishga qaratilgan konseptual yondashuvlarga alohida urg'u berib o'tilgan.

ANALYSIS OF LAWS, DECREES AND GOVERNMENT RESOLUTIONS IN THE FIELD OF ENVIRONMENTAL AND FLORA PROTECTION

ARTICLE INFO

Keywords:

environment,
nature,
biodiversity,
protection,
genetic integrity, flora,
strategy, gene pool,
gene bank,
gene fund.

ABSTRACT

This article presents an analysis of decisions, laws, and regulations of the Government of the Republic of Uzbekistan on environmental and flora protection. The analysis explains the relevance of the legislation that has been gradually adopted and enacted since independence. All of the legislation outlined emphasizes conceptual approaches aimed at preserving the biological diversity of our natural environment.

АНАЛИЗ ЗАКОНОВ, УКАЗОВ И ПОСТАНОВЛЕНИЙ ПРАВИТЕЛЬСТВА В ОБЛАСТИ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И РАСТИТЕЛЬНОГО МИРА

ИНФОРМАЦИЯ СТАТЬИ

Ключевые слова: окружающая среда, природа, биоразнообразие, защита, генетическая целостность, флора, стратегия, генофонд, банк генов, генетический фонд.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен анализ решений, законов и постановлений Правительства Республики Узбекистан по охране окружающей среды и флоры. Анализ объясняет актуальность законодательных актов, которые постепенно принимались и вступали в силу после обретения независимости. Все упомянутые законодательные акты подчеркивают концептуальные подходы, направленные на сохранение биологического разнообразия нашей природы.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, hukumat organlari tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilishga, xususan o‘simlik (flora) olamini himoya qilish va undan foydalanishga o‘ta jiddiy e‘tibor qaratib, nazoratni muntazam ravishda amalga oshirib kelmoqda.

Mustaqillikning ilk kunlaridan to hozirgi kunga qadar yuzdan ortiq qonun va qarorlar ishlab chiqilgan hamda amaliyotda joriy etilgan. Ushbu qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati bilan yaqindan tanishgan holda, ularning tafsiri ushbu maqolada aks ettirilgan. Yaqin o‘tmishdagi hujjatlarga yuzlanadigan bo‘lsak, muhtaram Prezidentimizning 2023-yil, 11-sentabrdagi PF-158-son farmonida (“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida) “*Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash*” (PF-158-son farmonning 1-ilovasi, 71-band) kabi muhim vazifa qayd etilgan. Xususan farmoning ushbu bandida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 12% gacha kengaytirish hamda 2 million ga maydondagi tabiiy yaylovlar va pichanzorlardagi o‘simliklarni biobotanik tekshirishni har yili amalga oshirish vazifasi belgilangan [4].

Umuman olganda Respublika hukumatining tabiatimizni muhofaza qilishga qaratilgan dastlabki qonunlaridan biri bu 1992-yilning, 9-dekabrdagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-754-XII-sonli qonuni hisoblanadi [5]. Ushbu qonunda tabiatning muhofaza qilinadigan obyektlari (yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi,

atmosfera havosi) aniq qilib belgilangan va hozirgi kungacha muhofaza qilib kelinmoqda. Qonunda keltirib o‘tilgandek, “...*jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish*” (3-modda, 3-xatboshi) maqsadi ayniqsa hozirgi davrda dolzarb ekanligini turmush tarzimizda kuzatib bormoqdamiz. O‘sha davrlarda qabul qilingan o‘ta muhim qonun hujjatlaridan yana biri bu Vazirlar Mahkamasining ““Ekosan” xalqaro ekologiya va salomatlik jamg‘armasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi VM-556-son (17.11.1994 dagi) qarori hisoblanadi [11]. Qarorda “EKOSAN” xalqaro jamg‘armasi tomonidan O‘rta Osiyo hamda Respublikamizning ekologik holatini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini himoya qilish hamda genofondni saqlab qolishga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish kabi ma‘lumotlar keltirilib o‘tilgan. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, hukumatning atrof-muhit va tabiatga bo‘lgan e‘tibori nafaqat Vazirlar Mahkamasi tomonidan, balki Respublika Oliy Sudi organlari tomonidan ham o‘sha davridayoq jiddiy nazoratga olingan. Bunga misol qilib O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining 1996-yil, 20-dekabrda “Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 36-son qarorini keltirib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi [8]. Ushbu qarorda “Tabiiy muhitni asrash, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish umummilliy vazifa hisoblanadi va bu ekologiya tizimini, tabiat komplekslari va ayrim obyektlarning muhofazasini ta‘minlashga, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo‘lish huquqini kafolatlashga qaratilgan” kabi muhim konseptual yondashuv qayd etib o‘tilgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning yana bir e‘tiborga molik jabhalaridan biri bu mavjud tabiiy resurslarning hisobini to‘g‘ri va doimiy tarzda yuritishdir. Tabiatdagi mavjud resurslar, xoh u hayvonot olami bo‘lsin, xoh u o‘simlik dunyosi bo‘lsin, doimiy ravishda nazorat qilinishi lozim. Shu nuqtai nazardan O‘zR Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-104-son (10.03.1998 dagi) qarorini qabul qilish dastlabki muhim qadamlardan bir bo‘lgan. Ushbu qarorning nizomida “Muhofaza etiladigan hududlar davlat kadastrini O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan Fanlar akademiyasi bilan birgalikda yuritiladi va tabiiy muhitning muhofaza etiladigan toifalariga kiritilgan obyektlari bo‘yicha birxillashtirilgan ma‘lumotlar to‘plamidan iborat bo‘ladi, u O‘zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi” deb belgilangan [12].

O‘zbekiston Respublikasi, xususan O‘rta Osiyo mintaqasi uchun tuzalmas kasallik

bo‘lib turgan Orol dengizi fojiasi hozirgi vaqtda ayniqsa dolzarb muammoligicha qolmoqda. Ushbu dengizning kun sayin qurib borishi, mazkur hududdagi tuproqlarning sho‘rlanishi va eroziyaga uchrashi nafaqat O‘zbekiston hududiga balki butun Markaziy Osiyo hududiga jiddiy ta’sir o‘tkazib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan Respublikamiz hukumati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ushbu muammo yechimini topishga mahkam belbog‘ bog‘lagan. Hukumatiz tomonidan qabul qilingan VM-162-son (3.04.2004 yildagi) “Orolbo‘yi genofondini muhofaza qilish xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bunga yaqqol misol bo‘la oladi [13]. Qabul qilingan qarorda ustuvor vazifalar, shu jumladan “...*mintaqaning biologik rangbarangligini saqlashda va tiklashda faol ishtirok etish*” vazifasining belgilanishi mazkur hududdagi tabiatni saqlab qolish o‘ta muhim ekanligini taqazo etadi.

Yuqorida ko‘p marotaba ta’kidlanganidek, mamlakatimiz tabiati, xususan atrof-muhitga bo‘lgan e’tibor eng yuqori darajada muhofaza qilinishi davr talabiga aylanib bo‘lgan. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan 2018-yil, 3-oktabrda PQ-3956 sonli qaror tasdiqlangan (“Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi). Ushbu qarorda bioxilma-xillikni muhofaza qilishga qaratilgan o‘ta muhim vazifa, ya’ni “*o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarining mavjud bo‘lishi, turlarining xilma-xilligini, tabiiy turkumlari yaxlitligini va ularning yashash muhitini saqlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish*” vazifasi belgilangan [1]. Shu o‘rinda yurtboshimizning yana bir muhim farmoniga to‘xatilib o‘tsak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 30-oktabrdagi PF-5863-sonli farmonida (“2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”) “Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyada Konvensiya tomonlariga quruqlikdagi qo‘riqlanadigan tabiat hududlari ulushini mamlakat jami hududining 17 foizigacha yetkazish tavsiya etilgan. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich qariyb 5 foizni tashkil etadi” degan muhim statistik ma’lumotlar keltirilib o‘tilganligi, tabiatimizni kafolatli saqlab qolishda hali uzoq va uzoq mashaqatli mehnat qilish zarurligini taqazo etadi. Bajarilgan ishlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, tabiiy hududlarni rivojlantirish va saqlash (muhofaza qilish) bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 16-fevraldagi PQ-131-sonli qarori bilan belgilangan. Buning natijasida (ushbu qarorda keltirilib o‘tilganidek) 2018 — 2021-yillar davomida Ugom-Chotqol davlat biosfera rezervati, Xorazm va “Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog‘lari hamda “Sudochye-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonasi tashkil etilib, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning mamlakat hududidagi ulushi qariyb ikki baravarga

ortdi. Shu bilan bir qatorda, PQ-131-son qarorida (16.02.2022) “Respublikada “Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simlik va hayvonot dunyosining noyob hamda yo‘qolib borayotgan turlarini qamrab olgan, o‘ziga xos, qimmatli tabiiy obyektlar va majmualar mavjud bo‘lib, ularni saqlab qolish va qayta tiklash muhim ahamiyat kasb etadi” deb ta’kidlanganligi tabiatdagi mavjud noyob obyektlarni saqlash va muhofaza qilish o‘ta muhimligini belgilaydi.

Umuman olganda, mamlakatimizning ko‘plab noyob hududlariga “*Muhofaza etiladigan tabiiy hudud*” maqomi berilishi bu juda quvonarli holat. Zero tabiiy omillarning salbiy ta’siri bo‘lganidek, hozirgi vaqtda inson omili ham, ming afsuski tabiiy hududlarning degradatsiyaga uchrashi oqibatlarini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli hukumatimiz tomonidan bir qator qonun hujjatlari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2005 yil, 6-yanvardagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-710-II-sonli qonuni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil, 20-martdagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4247-sonli qarori, ; O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 2012 yil, 6-fevraldagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish rejalarini ishlab chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2325 raqamli qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 10-martdagi O‘zbekiston respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-104-son qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 2-iyundagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududning pasportini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-137-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022yil, 4-martdagi “O‘rmon fondi yerlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi VM-93-son kabi qarorlari bejizga ishlab chiqilmagan [6; 9; 10; 12; 14; 15]. Shu o‘rinda hukumatimizning “Chorvoq suv ombori atrofidagi tog‘ va tog‘ oldi hududlarda o‘simlik qoplamining qisqarishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (06.08.2021 dagi VM-499-son) qarorni tilga olsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero inson omilining atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’siri kun sayin ortib bormoqda. Qaror bilan “o‘simlik qoplamining qisqarishiga ta’sir etuvchi tizimli omillarni o‘rganishga qaratilgan keng ko‘lamdagi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish” vazifasini bajarish qat’iy etib belgilangan.

Yuqoridagi zikr etilgan hamda qonun hujjatlarda bir necha bora qayd etilgan “*Muhofaza etiladigan tabiiy hudud*” tushunchasi bilan birgalikda yana bir muhim tushuncha mavjud bo‘lib, ushbu tushuncha “*biologik xilma-xillik*”dir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamisining 2018-yil, 7-noyabrda VM-914-sonli (“Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”) qarorida ushbu tushunchaga quyidagicha tavsif berilgan: “biologik xilma-xillik — jami o‘simlik dunyosi (hayvonlar, o‘simliklar, mikroorganizmlar) turlarining xilma-xilligi bo‘lib, tur doirasidagi, ekotizimlar turlari va rang-barangligi o‘rtasidagi xilma-xillikni o‘z ichiga oladi”. Xuddi shu qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘simlik dunyosi obyektlarining, ya’ni yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarning foydalanish xususiyatlari bo‘yicha bir necha guruhlarga ajratilgan: kamyob va yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklar; iqtisodiy jihatdan qimmatli bo‘lgan yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklar; tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o‘simliklari; muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o‘sadigan o‘simliklar; o‘simliklarning boshqa turlari [15].

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil, 21-sentabrda “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” O‘RQ-409-son qonunida ham flora dunyosining bioxilma-xilligini saqlab qolishda botanika bog‘larining ahamiyatiga jiddiy e’tibor qaratilgan. Ushbu qonunda “O‘simlik dunyosini va uning genetik fondini saqlab qolish, kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarning turlarini sun’iy yaratilgan sharoitlarda o‘rganish, iqlimga moslash va takror ko‘paytirish, ilmiy, o‘quv hamda ta’lim ishlarini olib borish, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish...” kabi muhim tushunchalar qayd etib o‘tilgan.

XULOSA

Hukumatimiz tomonidan atrof-muhitni muhoza qilish borasidagi sa’y-harakatlar, shu o‘rinda bevosita Prezidentimiz, Vazirlar Mahkamasi hamda boshqa ijro etish organlarining tabiatimizni asrab qolishga qaratilgan harakatlari hech birimizni befarq qoldirmasligi zarur. Zikr etib o‘tilgan qonun hujjatlarida, shu jumladan “*Urug‘lar genetik bankini (genbank) tashkil qilish*”, “*O‘simlik dunyosini va uning genetik fondini saqlab qolish...*”, “*Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya...*”, “*o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarining mavjud bo‘lishi, turlarining xilma-xilligini, tabiiy turkumlari yaxlitligini va ularning yashash muhitini saqlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish*”, “*...mintaqaning biologik rangbarangligini saqlashda va tiklashda faol ishtirok etish*”, “*...jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish*” hamda “*Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash*” kabi konseptual yondashuvlar yuzaga kelayotgan hamda haligacha yechimini topa olmayotgan muammolar yechimining huquqiy poydevori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3-oktabrdagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3956-sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-131-sonli qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 9-dekabrdagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-754-XII-sonli qonuni
6. O‘zbekiston Respublikasining 2005 yil 6-yanvardagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-710-II-sonli qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 22-sentabrdagi “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-409-sonli qonuni
8. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Sudi Plenumining 1996 yil 20-dekabrdagi “Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 36-son qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20-martdagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4247-sonli qarori
10. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 2012 yil 6-fevraldagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish rejalarini ishlab chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2325 raqamli qarori
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 17-noyabrdagi “Ekosan” xalqaro ekologiya va salomatlik jamg‘armasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi VM-556-son qarori
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 10-martdagi “O‘zbekiston respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-104-son qarori

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil, 3-apreldagi “Orolbo‘yi genofondini muhofaza qilish xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi VM-162-son qarori
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil, 2-iyundagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududning pasportini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-137-son qarori
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil, 7-noyabrdagi “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi VM-914-son qarori
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil, 4-martdagi “O‘rmon fondi yerlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi VM-93-son qarori